

RAQAMLI TA'LIM RESURLARIDAN FOYDALANISHDA PEDAGOGIK ETIKA VA DEONTOLOGIK ME'YORLAR

Gilishtaganova Ogultagan Meretbayevna
“Umumiy pedagogika” kafedrası tayanch doktoranti
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21932950>

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish jarayonida pedagogik etika va deontologik me'yorlarga rioya etishning nazariy hamda amaliy jihatlari, pedagogning raqamli muhitdagi kasbiy mas'uliyati, axborotdan foydalanish madaniyati, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, akademik halollik, raqamli muloqot etikasi hamda o'quvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishda pedagogik-deontologik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari aniqlanib, ularni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim resurslari, pedagogik etika, deontologiya, pedagogik deontologiya, raqamli kompetensiya, akademik halollik, axborot xavfsizligi, raqamli madaniyat.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты соблюдения педагогической этики и деонтологических норм в процессе использования цифровых образовательных ресурсов, профессиональная ответственность педагога в цифровой среде, культура использования информации, защита персональных данных, академическая честность, этика цифрового общения, а также вопросы защиты прав и интересов учащихся. Также определены основные компоненты педагогико-деонтологической компетенции в использовании цифровых образовательных ресурсов и освещены приоритетные направления их развития.

Ключевые слова: цифровые образовательные ресурсы, педагогическая этика, деонтология, педагогическая деонтология, цифровая компетенция, академическая честность, информационная безопасность, цифровая культура.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of adhering to pedagogical ethics and deontological norms in the process of using digital educational resources, the professional responsibility of a teacher in a digital environment, information usage culture, personal data protection, academic integrity, digital communication ethics, and issues regarding the protection of students' rights and interests. The main components of pedagogical-deontological competence in using digital educational resources are also defined, and priority areas for their development are highlighted.

Keywords: digital educational resources, pedagogical ethics, deontology, pedagogical deontology, digital competence, academic integrity, information security, digital culture.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi pedagogik faoliyatning mazmuni va shakllarini tubdan o'zgartirmoqda. Elektron darsliklar, ta'lim platformalari, videodarslar, virtual laboratoriyalar, sun'iy intellekt vositalari, onlayn test tizimlari va boshqa raqamli resurslar ta'limning samaradorligi hamda individuallashuvini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Raqamli texnologiyalarning pedagogik jarayonga integratsiyasi o'qituvchidan texnologik vositalarni fan mazmuni va pedagogik metodlar bilan uyg'unlashtirishni talab etadi [4]. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunida ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, jumladan, ta'lim oluvchilarning huquqlari, ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim jarayonining insonparvarlik xususiyati belgilangan [1]. Shuningdek, “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi Qonunda pedagogning kasbiy faoliyati, huquq va majburiyatlari hamda uning kasbiy mas'uliyatiga oid qoidalar mustahkamlangan [2]. Biroq raqamli ta'lim muhitining kengayishi pedagog oldiga faqat texnologik bilim va ko'nikmalarni emas, balki yuqori darajadagi axloqiy va deontologik mas'uliyatni ham qo'yadi. Chunki raqamli muhitda pedagog o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlari, ta'lim natijalari, ijodiy ishlari va raqamli faoliyati bilan ishlaydi. Mazkur jarayonda pedagogning har bir harakati o'quvchining huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini va ta'lim olish manfaatlarini bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Pedagogik etika pedagogning kasbiy faoliyatida amal qilishi lozim bo'lgan axloqiy tamoyillar majmuini ifodalasa, pedagogik deontologiya o'qituvchining kasbiy burchi, mas'uliyati va majburiyatlarini belgilaydi. Raqamli ta'lim sharoitida ushbu tushunchalar yangi mazmun bilan boyib, “raqamli pedagogik etika” va “raqamli deontologik mas'uliyat” kabi yo'nalishlarning shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Raqamli ta’lim resurslari – ta’lim maqsadlariga erishishga xizmat qiluvchi elektron, multimedia va interaktiv vositalar majmuasidir. Ularga elektron darsliklar, ta’lim platformalari, raqamli kutubxonalar, videomateriallar, simulyatorlar, virtual laboratoriyalar, elektron testlar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalarini kiritish mumkin.

Mazkur resurslardan oqilona foydalanish: ta’lim mazmunini individuallashtirish; o’quvchilarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish; tezkor qayta aloqa o’rnatish; ta’lim natijalarini monitoring qilish; multimedaviy va interaktiv ta’lim muhitini yaratish; o’quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli resurslardan foydalanish pedagogdan ularning mazmuni, manbasi, ishonchliligi va o’quvchilarga ta’sirini baholashni talab qiladi. Demak, texnologik kompetensiya pedagogik-axloqiy kompetensiya bilan uyg’unlashgandagina raqamli ta’lim kutilgan natijani beradi.

Raqamli ta’lim muhitida pedagogik etikaning mazmuni bir necha fundamental tamoyillar asosida namoyon bo’ladi.

Insonparvarlik tamoyili. Pedagog raqamli vositalardan foydalanishda o’quvchining shaxsini, qadr-qimmatini va individual xususiyatlarini hurmat qilishi lozim. Raqamli platformalardagi baholash, fikr bildirish yoki muloqot jarayonida o’quvchini kamsituvchi, tahqirlovchi yoki shaxsiyatiga tegadigan ifodalardan foydalanish pedagogik etikaga zid hisoblanadi. Ta’lim jarayonining insonparvarlik xususiyati O’zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi qonunchiligida ham muhim prinsip sifatida qaraladi [1].

Adolatlilik tamoyili. Raqamli texnologiyalardan foydalanish barcha o’quvchilar uchun imkon qadar teng ta’lim sharoitlarini yaratishga xizmat qilishi kerak. Texnik imkoniyatlari cheklangan o’quvchilarni ta’lim jarayonidan chetda qoldirmaslik, baholashda texnik muammolarni hisobga olish pedagogning kasbiy mas’uliyatidir.

Maxfiylik tamoyili. O’quvchilarning shaxsiy ma’lumotlari, baholari, fotosuratlar, videolari va boshqa raqamli ma’lumotlaridan foydalanishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Pedagog o’quvchining shaxsiy ma’lumotlarini asossiz ravishda tarqatmasligi va undan faqat pedagogik maqsadlarda foydalanishi kerak.

Akademik halollik tamoyili. Raqamli muhitda tayyor materiallarni o’zlashtirish, plagiat, mualliflik huquqini buzish, nazorat ishlarida noqonuniy yordam vositalaridan foydalanish kabi muammolar kuchayishi mumkin. Shu bois pedagog o’quvchilarda manbadan to’g’ri foydalanish, iqtibos keltirish va mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirishi zarur [6].

Mas’uliyat tamoyili. Pedagog raqamli resursni o’quv jarayoniga joriy etishdan avval uning mazmuni, xavfsizligi, pedagogik maqsadga muvofiqligi va o’quvchiga ta’sirini baholashi lozim.

“Deontologiya” tushunchasi lotin tilidagi “deontos” – burch, majburiyat va “logos” – ta’limot ma’nolarini anglatuvchi so’zlardan tarkib topgan [5]. Mazkur tushuncha o’qituvchining kasbiy faoliyati davomida rioya etishi lozim bo’lgan axloqiy me’yorlar, tamoyillar va kasbiy burchlarni o’rganishga qaratilgan.

Pedagogik deontologiya o’qituvchining kasbiy burch va majburiyatlarini o’rganadigan yo’nalish sifatida raqamli ta’lim sharoitida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli muhitda pedagogning deontologik majburiyatlarini quyidagi yo’nalishlarda ko’rish mumkin:

Yo’nalish	Majburiyatlari
axborot bilan ishlash,	ishonchli va tekshirilgan axborotdan foydalanish
shaxsiy ma’lumotlar	O’quvchi ma’lumotlarini himoya qilish
Raqamli muloqot	Hurmatli va madaniyatli muloqotni ta’minlash
Baholash	Xolis, shaffof va adolatli baholash
Mualliflik huquqi	Mualliflik huquqi va intellektual mulkka hurmat
Akademik halollik	Plagiat va akademik insofsizlikka yo’l qo’ymaslik
Raqamli xavfsizlik	Xavfsiz raqamli muhit yaratish
Sun’iy intellekt	AI vositalaridan mas’uliyatli va shaffof foydalanish

1-rasm: Pedagogning deontologik majburiyatlari

Bundan ko’rinadiki, zamonaviy pedagogning kasbiy burchi faqat dars berish bilan chegaralanmaydi. U raqamli axborot muhitida o’quvchi uchun axloqiy namuna vazifasini ham bajaradi.

Raqamli ta’lim muhitida pedagogik etika va deontologiya bilan bog’liq bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi masalasi dolzarbdir. O’quvchilar haqida

ma'lumotlarni turli platformalarga joylashtirishdan avval ularning xavfsizligi va foydalanish shartlari baholanishi kerak. Ikkinchidan, axborotning ishonchliligi muammosi mavjud. Internetdagi barcha ma'lumotlar ham ilmiy va pedagogik jihatdan ishonchli emas. Shuning uchun pedagog o'quvchilarga axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishi lozim. Uchinchidan, sun'iy intellektidan foydalanish etikasi yangi masalalarni yuzaga keltirmoqda. AI vositalari ta'lim mazmunini yaratish, topshiriqlar tayyorlash va individual ta'limni tashkil etishda katta imkoniyatlar beradi [3]. Biroq uning natijalarini tekshirmasdan qabul qilish, o'quvchi ishini to'liq sun'iy intellektga topshirish yoki AI yordamidan foydalanishni yashirish akademik halollik bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. To'rtinchidan, raqamli muloqot madaniyati muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi messenjerlar, elektron pochta va ta'lim platformalarida ham kasbiy odob qoidalariga amal qilishi kerak. Beshinchidan, raqamli tengsizlik muammosi mavjud. Barcha o'quvchilarda bir xil internet, qurilma yoki dasturiy ta'minot imkoniyati bo'lmasligi mumkin. Shu sababli raqamli resurslardan foydalanishda pedagog ijtimoiy va texnologik tenglikni hisobga olishi zarur.

Raqamli ta'lim sharoitida pedagogik deontologiyani ta'minlash uchun o'qituvchida maxsus kompetensiyalar majmuini shakllantirish maqsadga muvofiq. Ularni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

1. Axborot-axloqiy komponent – axborotni izlash, tanlash, tekshirish va undan etik foydalanish ko'nikmalari.
2. Raqamli-kommunikativ komponent – raqamli muhitda o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan madaniyatli muloqot qilish qobiliyati.
3. Huquqiy-deontologik komponent – shaxsiy ma'lumotlar, mualliflik huquqi, akademik halollik va pedagogning kasbiy majburiyatlariga oid me'yorlarni bilish.
4. Refleksiv komponent – pedagogning o'z raqamli xatti-harakatlarini tahlil qilishi va uning o'quvchilarga ta'sirini baholay olishi.
5. Mas'uliyatli-texnologik komponent – raqamli vositalarni pedagogik maqsadga muvofiq, xavfsiz va mas'uliyatli tanlash hamda qo'llash qobiliyati.

Mazkur komponentlarning uyg'un rivojlanishi pedagogning raqamli muhitdagi kasbiy faoliyatini yanada samarali va etik jihatdan barqaror tashkil etish imkonini beradi.

Ta'lim tashkilotlarida raqamli pedagogik etika va deontologik me'yorlarni shakllantirish uchun quyidagi mexanizmlardan foydalanish mumkin: pedagoglar uchun “Raqamli pedagogik etika” bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish; raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishning etik kodeksini ishlab chiqish; pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini muntazam baholab borish; real pedagogik vaziyatlar asosida keys-stadilar tashkil etish; akademik halollik bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish; shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik bo'yicha seminarlar tashkil etish; sun'iy intellektidan foydalanishning mas'uliyatli tamoyillarini o'rgatish; pedagoglarning o'z faoliyatini refleksiv baholash mexanizmlarini joriy etish. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida pedagogik etika va deontologiya masalalarini raqamli ta'lim kompetensiyalari bilan integratsiyalash muhimdir.

Raqamli ta'lim resurslarining ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi pedagogning kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan talablarni sezilarli darajada kengaytirmoqda. Endilikda pedagog nafaqat o'z fanini va zamonaviy texnologiyalarni yaxshi bilishi, balki raqamli muhitda axloqiy va deontologik me'yorlarga qat'iy rioya qilishi ham zarur.

Raqamli ta'lim sharoitida pedagogik etikaning asosiy yo'nalishlari insonparvarlik, adolatlilik, maxfiylik, akademik halollik, mas'uliyat, hurmat va axborot xavfsizligi tamoyillariga asoslanadi. Pedagogik deontologiya esa ushbu tamoyillarni kasbiy burch va mas'uliyat darajasida amalga oshirishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy pedagogni tayyorlash tizimida raqamli-deontologik kompetensiyani shakllantirish istiqbolli ilmiy-pedagogik yo'nalishlardan biri sifatida qaralishi mumkin. Mazkur kompetensiya pedagogning raqamli texnologiyalardan nafaqat samarali, balki mas'uliyatli, axloqiy va o'quvchi manfaatlariga yo'naltirilgan holda foydalanishini ta'minlaydi. Umuman olganda, raqamli texnologiyalarning ta'limdagi samaradorligi faqat ularning texnik imkoniyatlari bilan emas, balki ulardan foydalanayotgan pedagogning kasbiy madaniyati, axloqiy pozitsiyasi va deontologik mas'uliyati bilan ham belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi 23.09.2020 O'RQ – 637 – son Qonuni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘RQ – 901 – son Qonuni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.02.2024.
3. Floridi L. The Ethics of Information. – Oxford: Oxford University Press, 2013. – 357 p.
4. Mishra P., Koehler M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. 2006. Vol. 108, No. 6. P. 1017–1054.
5. Safarova R.G, Gaipov D.J. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. – Nókis: «AVANGARD-BASPA» , 2025. – 120 bet.
6. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – London: Bloomsbury, 2017. – 216 p.